SHARTNOMA № 04/08. A-D
(22110012127855-sonli lot bo'yicha)

"12" avgust 2022 yil Toshkent shahri

Davlat chegarasi va transportda davlat veterinariya nazorati boshqarmasi, keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi boshlig'i B.N.Ruzibayev bir tomondan va **"ATOM SMART SOLUTION" MCHJ** keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb yuritiluvchi o'zining nizomi asosida ish yurituvchi direktori O.Xalikulov ikkinchi tomondan va mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1.SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma (tanlash hujjatlari) bo'yicha "Ijrochi" Samarqand viloyati, Urgut tumani, Jartepa chegara postida dezinfeksiya to'sig'ini yasash, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

2.SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXI

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy qimati **143 316 676** (bir yuz qirq uch million uch yuz o'n olti ming olti yuz yetmish olti) so'm (QQSsiz) ni tashkil etadi.

2.2. Ishlarining boshlanishi: oldindan 30% to'lov kelib tushganidan so'ng, bir ish kunida.

2.3. Ishlarining tugash vaqti: 20 (yigirma) kun.

3. ISHLARNI BOSHLASH , BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ishlarni bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida kursatilgan avansni "Ijrochi" olgandan so'ng 1 ish kunida ishlarni boshlaydi.

3.3. "Buyurtmachi" tomonidan ishlarni bajarish davrida "Ijrochi"ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Shartnoma shartlari to'liq bajarilib, ishlar yakunlangach tomonlar o'rtasida belgilangan tartibda qabul qilish va topshirish hujjatlari rasmiylashtiriladi.

4.TO'LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1. "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga oldindan to'lov sifatida shartnoma qiymatining umumiy qiymatidan 30 foizini shartnoma imzolangan kundan 10 (o'n) bank ish kuni davomida "Ijrochi" hisob raqamiga ko'chirib beradi.

4.2. Tomonlarning kelishuviga ko'ra haqiqiy bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib "Ijrochi"ga oldindan to'lov (30%)dan tashqari shartnoma umumiy summasining 70 foizidan oshmagan miqdorda oraliq dalolatnomaga asosan mablag' o'tkazib berilishi mumkin.

4.3.Ishlar tugatilib "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilingan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni davomida yakuniy hisob kitob qilinadi.

4.4. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.

5. IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. "Ijrochi" ishlarni shartnoma 2.3 bandida kursatilgan muddatda o'z vaqtida sifatli qilib topshirish.

5.2. "Ijrochi" ishlarni bajarish uchun maxsus yollanma ishtirokchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Tegishli oyda bajarilgan ishlari to'g'risida tegishli hujjatlarni «Buyurtmachi»ga taqdim qilishi shart.

5.4. "Ijrochi" shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar tog'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. "Ijrochi" "Buyurtmachi"dan bajarilgan xizmat uchun haqni shartnomaning 4.1 bandiga asosan kelishilgan vaqtda va miqdorda to'lanishini talab qilish huquqiga ega.

6. BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1 "Buyurtmachi" «Ijrochi»dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 Ishlar "Ijrochi" tomonidan berilgan tanlov taklifida nazarda tutilgan narx doirasida shartnoma asosida bajariladi .

6.3 "Buyurtmachi" xizmat uchun haqni o'z vaqtida to'lash majburiyatiga ega.

7.TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

7.1.Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga asosan iqtisodiy sudlarida hal etiladi.

8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI HAMDA TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Agar ishlar mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda "Ijrochi"ning aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda "Buyurtmachi"ga quyidagi tartibda jarima to'laydi:
- ishlarni bajarish muddati 20 kunga kechiktirilsa, shartnoma bahosidan 0,5% miqdorida;
-keyingi 20 kun uchun shartnoma bahosidan 1 % miqdorida;
-undan keyingi muddatlar uchun 3 % miqdorida;

8.2 Shartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, "Buyurtmachi" maxsus hisob-raqamidan har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning to'lanmagan narxini 0,2% miqdorida "Ijrochi"ga penya to'laydi. Penya miqdori shartnoma summasining 5% dan oshmasligi kerak.

8.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangandan va Moliya vazirligi g'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi hamda "31" dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

9.BOSHQA HOLATLAR.

9.1. Tomonlar shartnoma majburiyatlari yuzasidan o'zaro hamkorlik qilib turadilar.

9.2. Davlat chegara o'tkazish punkti hududiga kirib-chiqish va tartibini inobatga olib, ishlarni bajarish muddati uzaytirilishi mumkin.

9.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga va tanlash hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"BUYURTMACHI"	"IJROCHI"
Davlat chegarasi va transportda davlat veterinariya nazorati boshqarmasi	"Atom Smart Solution" MCHJ
Manzil: Toshkent sh., Kichik halqa yo'li, 21a	Manzili: Toshkent shahri, Olmazor tumani, G'alaba MFY, Urazbayev ko'chasi 68 uy, 16-xonadon
STIR: 201228112	h/r: 2020 8000 3055 2702 7001
G'azna h/r 2340 2000 3001 0000 1010	STIR: 309550250
Sh.G'.H: 10001086026294704213825000 1	"Ipoteka Bank" ATIB Olmazor filiali
STIR: 201 122 919	
Markaziy bank Toshkent shahar bosh boshqarmasi HKKM, MFO: 00014	
Boshliq B.Ruzibayev	Direktor O.Xalikulov
Bosh yuriskonsult X.Batirov	

5067448

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"ATOM SMART SOLUTION" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"ATOM SMART SOLUTION" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

16.05.2022 1137699 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 309550250

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Галаба МФЙ, Уразбаев кучаси, 68-уй, 16-хонадон,

Guvohnoma: Toshkent shahri, Olmazor tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Давлат чегараси ва транспортда давлат ветеринария назорати бошқармаси бошлиғи ўринбосари, танлов комиссияси раиси
А. С. Жумаев
2022 йил “10” август

Давлат чегараси ва транспортда давлат ветеринария назорати бошқармаси танлов комиссияси йиғилишининг

X/3 -сон

БАЁННОМАСИ

2022 йил “10” август Тошкент ш.

ҚАТНАШДИЛАР:

А.С.Жумаев	Давлат чегараси ва транспортда давлат ветеринария назорати бошқармаси бошлиғи ўринбосари, танлов комиссияси раиси.
Ш.Э. Баймурадов	Молия-иктисодий таҳлил ва бухгалтерия ҳисоби бўлими бошлиғи, танлов комиссияси раиси ўринбосари.
К.Ж. Ортикова	Молия-иктисодий таҳлил ва бухгалтерия ҳисоби бўлими бош ҳисобчиси, танлов комиссияси аъзоси.
Б.Р. Мухсимов	“Тошкент аэро” чегара ветеринария пункти ветеринария врачи, танлов комиссияси аъзоси.
Х.У.Норкулов	Бошқарма котиб-референти, танлов комиссияси масъул котиби

КУН ТАРТИБИ:

Давлат чегарасида транспорт воситаларига ветеринария санитария ишлови беришга мўлжалланган замонавий инновацион дезинфекция қурилмасини ясаш ва ўрнатиш
Лот №127855

(Жумаев, Баймурадов, Ортикова, Мухсимов, Жумаев)

Кун тартибига қўйилган масала юзасидан бошқарма бошлиғи ўринбосари, танлов комиссияси раиси А.Жумаев сўзга чиқиб, Давлат чегарасида транспорт воситаларига ветеринария санитария ишлови беришга мўлжалланган замонавий инновацион дезинфекция қурилмасини ясаш ва ўрнатиш **etender.uzex.uz** сайтида 127855-сонли лот раками орқали эълон берилганлигини маълум қилди.

Тақдим этилган 3 та корхона “ATOM SMART SOLUTION” MCHJ, “БИНОКОР”МЧИЧК ва “ООО FAROVON FAYZ BINOKOR” таклифлари келиб тушганлиги билан комиссия аъзоларига атрофлича таништириб чиқилди.

Танлов комиссияси котиби Х.Норкулов сўзга чиқиб, ЎРҚ-684-сонли "Давлат харидлари тўғрисида"ги қонуннинг талабларига қатъий риоя қилиш бўйича ҳамда бюджет ва бюджетдан ташқари маблағларни мақсадли тарзда фойдаланишлари лозимлиги тўғрисида тушунтириш бериб ўтди ҳамда сўзида давом этар экан танлаш предмети бўйича 3 та корхонадан таклифлар келиб тушганлигини билдириб ўтди.

Танлов комиссияси аъзоларида мазкур 127855-сон лот иштирокчилари билан аффилланганлик хусусиятига эга алоқалар мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикаси "Давлат харидлари тўғрисида"ги Қонуннинг (ЎРҚ-684-сон, 22.04.2021 й.) 23-моддасига кўра, иштирокчи ва унинг аффилланган шахси мазкур 127855-сонли лотда иштирок этмаяпти.

Муҳокамага қўйилган масала юзасидан 2 (икки) иш куни давомида ҳеч қандай таклифлар келиб тушмади ва норозиликлар билдирилмади.

Маълумотлар stat.uz саҳифаси орқали текширилди.

Лотда иштирок этган қатнашчилар:

1. "ATOM SMART SOLUTION" МЧЖ
2. "BINOKOR" МЧЖ
3. "FAROVON FAYZ BINOKOR" МЧЖ

Дастлабки баҳолашга кўра, "FAROVON FAYZ BINOKOR" МЧЖ танлаш ҳужжатларининг 1-жадвали 5-бандида солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарзларнинг йўқлиги тўғрисида **ваколатли органдан маълумотнома** тақдим этилиши белгиланган. Лекин мазкур иштирокчи мазкур маълумотномани ваколатли органдан олмасдан, мустақил ўзи ёзган. Бундан ташқари ўрганиш кунги ҳолатига солиқдан қарзи мавжудлиги аниқланди. Ушбу асосларга кўра, иштирокчи танлашдан четлаштирилди.

Комиссия аъзоларининг хулосасига кўра "ATOM SMART SOLUTION" МЧЖ энг юқори балл тўплаган ва энг мақбул таклиф берган деб топилди.

Комиссия қарор қилади:

1. Давлат чегарасида транспорт воситаларига ветеринария санитария ишлови беришга мўлжалланган замонавий инновацион дезинфекция қурилмасини ясаш ва ўрнатиш бўйича "ATOM SMART SOLUTION" МЧЖ корхонаси таклифи бир овоздан маъқуллансин.

2. "ATOM SMART SOLUTION" МЧЖ танлов ғолиби деб топилсин ва ушбу корхона билан шартнома имзолаш мақсадга мувофиқ деб белгилансин.

3. Ушбу баённома ижроси Молия-иқтисодий таҳлил ва бухгалтерия ҳисоби бўлими бошлиғи Ш.Баймурадов зиммасига юклатилсин.

Танлов комиссияси аъзолари:

Ш.Баймурадов _____ **К.Ортикова** _____

Х.Норкулов _____ **Б.Мухсимов** _____